O’XSHATISHLARNING BADIIY ASARLARDA QO’LLANILISHI VA TARJIMA USULLARI

Anvarova Farangiz Anvarovna,
Termiz davlat universiteti doktoranti
E-mail: farangizanvarova9624@gmail.com
Tel: 77 742 03 87

Annotatsiya: Mazkur tezisda o’xshatishlarning lingvomadaniy birlik sifatida alohida millatning tarixi, dunyoqarashi, milliyligi, urf-odatlari kabilarni ifoda etishi va badiiy adabiyotda keng qo’llanilishi muhokama qilinadi. Badiiy adabiyotda o’xshatishlardan foydalanish fikr ta’sirchanligi va emotsionalligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Natijada, muallif o’z maqsadini kitobxonga osongina yetkaza oladi. Bu esa, o’z navbatida, tarjimon oldiga ham bir nechta vazifalarni qo’yadi. Ya’ni o’xshatishlarning ma’nosini saqlagan holda bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish o’ziga xos murakkab jarayondir. Ana shunday masalalar tezisda mashhur amerikalik yozuvchi Den Braunning “Farishtalar va Iblislar” asari misolida atroflicha yoritib beriladi.

Kalit so’zlar: badiiy tarjima, lingvomadaniy birlik, o’xshatish, tarjima usullari, mos ekvivalent, izohli tarjima, kalkalash.

KIRISH. Badiiy adabiyotda, xoh poeziya bo’lsin, xoh prozada, ijodkorning oldidagi ustuvor maqsadlardan biri asar ta’sirchanligini va ekspressivligini hamda milliy ruhni kitobxonga to’laligicha yetkazib berish sanaladi. Bu kabi vazifani lingvomadaniy birliklar sirasiga kiruvchi o’xshatishlar orqaligina ifodalay olish mumkin. Ular muallifning badiiy niyatini ochib berish bilan birga, matnga estetik joziba bag’ishlaydi. O‘xshatishlar tashqi dunyoni bilishning eng qadimiy usullaridan hisoblanadi. O‘xshatishlar muayyan xalqning ilk tafakkur tarzini va tasavvurlarini tamsil etadi. O‘xshatish asosan nutqiy hodisa hisoblanadi.

ASOSIY QISM. O’xshatish tasviriy ifodaning eng qadimgi shakllaridan bo’lib, Aristotel poeziyani o’xshatish san’ati deb ataydi. Chet ellik olimlardan M.

Cheremisina va S.L. Nevelevalar o'xshatishlar, ularning tuzilishi hamda badiiy adabiyotdagi o'rni haqida tahliliy tadqiqotlar olib borishgan. S.V. Nevelevaning aytishicha, o'xshatish dastlab panini davridan boshlab qadimgi hind poetikasi zamirida paydo bo'lib, u, asosan, to'rt asosdan tashkil topadi: subyekt, obyekt, o'xshash belgi va o'xshatish shakli. Shu kabi fikrlarni o'zining "Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari" kitobida berib o'tgan [1]. O'zbek tilshunosligida o'xshatishlar haqida ilk izlanishlar olib borgan olim M. Mukarramov bo'lib, uning fikricha ushbu san'at turi uch asosdan: o'xshatiluvchi obyekt, o'xshovchi obraz va o'xshatish shaklidan iborat. Ammo, o'xshatish badiiy nutq doirasida cheklanib qolgan vosita emas, uni nutqning boshqa ko'rinishlarida, jumladan, so'zlashuv nutqida ham ko'plab uchratish mumkin [2]. Professor N. Mahmudov ham o'xshatishning to'rt unsurdan tashkil topishini, o'xshatish subyekti, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi ekanligini ta'kidlaydi [3]. O'xshatishlar ikki turga bo'linadi: umumxalq o'xshatishlar va badiiy o'xshatishlar. O'xshatish hosil qiluvchi leksik vositalarga kabi, singari, go'yo, xuddi, misli, misoli, bamisli ko'makchilari misol bo'lsa, -dek, -day, -simon, -ona, -larcha va shunga o'xshash bir nechta qo'shimchalar o'xshatish hosil qiluvchi grammatik vositalardir.

O'xshatishlar tadqiqi orasida N. Mahmudov va D. Xudoyberganovalar tomonidan tuzilgan "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati" o'ziga yarasha muhim o'rin tutadi. Bu lug'atda tilimizda uchraydigan 500 dan ortiq o'xshatishlarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlari leksikografik jihatdan yoritib berilgan. Badiiy asarlarda qo'llanilgan o'xshatishlar quyidagi vazifalarni bajaradi: 1.Obrazlilikni saqlash; 2.Milliy-madaniy xususiyatni yetkazish; 3.Emotsional bo'yoqdorlik.

Badiiy asarlardagi o'xshatishlarni bir tildan ikkinchi tilga o'girish ham, o'z navbatida, qiyin jarayon sanaladi. Bunda tarjimon oldida shunday vazifa turadiki, u ham bo'lsa o'xshatishning shaklini saqlab qolish emas, balki uning badiiy-estetik vazifasini va yashirin ma'nosini to'liq yetkazib berishdir. Tarjima jarayonida ana shunday qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida quyidagi tarjima usullaridan

foydalanish lozimligi o’z isbotini topgan: 1.So‘zma-so‘z tarjima; 2. Ekvivalent (mos) o‘xshatish topib tarjima qilish; 3. Milliylikni saqlab qolgan holda izoh keltirish.

Den Braunning “Farishtalar va Iblislar” asarida ham ko’plab o’xshatishlar duch kelishimiz mumkin. Olim N. Mahmudovning klassifikatsiyasiga asoslangan holda quyida ularning qisqacha tahlili ko’rib chiqiladi.

1.*”He struggled to keep up, but his legs felt like stone”.* Bu jumladagi *“his legs felt like stone”* o’xshatishi o’zbek tiliga *“oyog’i toshdek og’ir qadam tashlardi”* tarzida tarjima qilingan. Berilgan misoldagi o’xshatish subyekti *“stone”,* o’xshatish etaloni *“legs”,* o’xshatish asosi *“heaviness”* hamda o’xshatishning shakliy ko’rsatkichi sifatida *“like”* leksik vositasidan fordalanilgan. Tarjimada ingliz tilidagi o’xshatishning o’zbek tilidagi aynan muqobilini tanlash orqali adekvatlikka erishilgan. Ushbu jumla asarning 137-bobida ham keltirilgan, chunki bu asar qahramonining tushida takrorlanadi. Ammo tarjimon ikkinchi marta *“stone”* so’zini *“qo’rg’oshin”* deb tarjima qilgan.

2.*”The killer’s eyes glistened, black like oil”.* Navbatdagi gap o’zbek tiliga *“Qotilning yoqilg’i moyi kabi tim qora ko’zlari chaqnab ketdi”* tarzida tarjima qilingan. Ushbu misoldagi o’xshatish subyekti *“oil”,* o’xshatish etaloni *“killer’s eyes”,* o’xshatish asosi “*blackness”* hamda o’xshatishning shakliy ko’rsatkichi sifatida *“like”* leksik vositasidan foydalanilgan. Tarjimon o’xshatishni o’zbek tiliga kalkalash usuli orqali tarjima qilgan. Kontekstning ma’nosiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, yozuvchi qotilning ko’zini aynan yoqilg’i moyiga qiyoslagan. Odatda, badiiy adabiyotda ko’zning qoraligi tun yoki tubsiz dengizga tamsil etiladi. Biroq, qotil salbiy personaj bo’lganligi sababli, adib unga nisbatan aynan salbiy vositani qo’llagan. Tarjimon ham muallifning maqsadini anglagan holda o’xshatish subyektini o’z holicha, boshqa uslubiy vositalarga o’zgartirmasdan tarjima qilgan va adekvatlikni *saqlab* qolgan.

3.*”The Hassassin padded the length of the hallway like a panther anticipating a long overdue meal”.* Endigi jumla o’zbek tiliga *“Qotil uzoq kutgan o’ljasiga*

tashlanishga shaylanayotgan yo'lbars kabi eshuikka sekin yaqinlashdi" tarzida tarjima qilingan. Bu misoldagi o'xshatish subyekti *"panther",* o'xshatish etaloni *"The Hassassin",* o'xshatish asosi *"impatience"* hamda o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi sifatida *"like"* leksik vositasidan foydalanilgan. Tarjimon o'xshatishni o'zbek tiliga izohlash orqali o'girgan. Sababi, bu o'rinda so'zma-so'z tarjima usulidan foydalanish to'g'ri bo'lmaydi. Masalan, pantera ba'zi o'zbek kitobxonlari uchun notanish hayvon turi bo'lsa, *"overdue"* so'zi muddati o'tgan degan ma'noni bildiradi.

4. *"Rocher was a barrel-chested man with soft, puttylike features"* gapi o'zbek tiliga *"U ko'kragi bochkadek keng, yuzi esa xamirdek yumshoq bahaybat edi"* tarzida ketma-ket o'xshatishlarning mos muqobilini keltirish orqali o'girilgan. Birinchi o'xshatish subyekti *"barrel",* o'xshatish etaloni *"chest",* o'xshatish asosi *"broadness",* biroq o'xshatish hech qanday vositasiz, birikmali sifatdosh tarzida yasalgan. Ikkinchi o'xshatish subyekti *"putty",* o'xshatish etaloni *"features",* o'xshatish asosi *"softness",* o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi *"like"* leksik vositasi orqali ifodalangan. Tarjimon bu o'rinda *"features"* ni *"yuzi"* deya tarjima qilgan va unga nisbatan *"putty"* so'zining asl lug'aviy ma'nodagi tarjimasini emas, balki ko'chma ma'noli tarjimasi bo'lmish *"xamir"* so'zidan foydalangan. Sababi shundaki, o'zbek tilida ko'pincha yuz xamirga qiyoslanadi.

XULOSA. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, har bir adibning so'z qo'llash mahorati u qo'llagan original o'xshatishlar bilan ham belgilanadi. O'xshatishning har qanday turida ham obrazlilik mavjud. Badiiy matnlarda o'xshatishlar qo'llanilishini tahlil qilishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad badiiy matn uchun xarakterli bo'lgan o'xshatishlarning turli ko'rinishlarini aniqlash, ulardagi o'xshash belgining avvaldan ma'lum yoki noma'lumligiga ko'ra matndagi funksional xususiyatlarini izohlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. -T.: Fan, 2013.

2.Mukarramov M. O'zbek tilida o'xshatishlar. -T.: Fan, 1978.

3. Mahmudov N. O'xshatishlarning til va nutqdagi o'rni/Til tilsimi tadqiqi. - Toshkent.: Mumtoz so'z, 2017.

4.Dan Brown. "Angels and Demons". – USA: "Pocket books", 2000. – 558 p.

5. Дэн Браун "Фаришталар ва Иблислар". – Тошкент, ИЛМ-ЗИЁ ЗАКОВАТ, 2023. – 640 б.